



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TO'LOV BALANSI,
XALQARO INVESTITSIYAVIY MAVQEI
VA TASHQI QARZI**

2026

I YARIM YILLIK

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MARKAZIY BANKI**

2026

Bu qanday
nashr?

Ushbu nashr 2026-yilning I yarmi uchun O'zbekiston to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga olib, Xalqaro valyuta jamg'armasining "To'lov balansi va xalqaro investitsiyaviy mavqe bo'yicha qo'llanmasi"ning oltinchi nashriga (TBQ 6-son, XVJ, 2009-y.) hamda "Tashqi qarz statistikasi bo'yicha qo'llanma"ga (2013-y.) muvofiq tayyorlangan.

Ma'lumotlar qaysi
sanaga dolzarb?

Ushbu nashrda keltirilgan statistik ma'lumotlar 2026-yil 30-sentyabr holatiga dolzarb hisoblanadi.

Ma'lumotlarni
qayerdan olish
mumkin?

To'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo'yicha tahliliy va standart ko'rinishdagi statistik jadvallar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining <http://www.cbu.uz/> va XVJning <http://data.imf.org/> veb-saytlari orqali taqdim qilinmoqda.

Nashrga taalluqli
savol va takliflar
bo'yicha qanday
murojaat qilish
mumkin?

R.M. Mirzaaxmedov

Statistika va to'lov balansi departamenti direktori

(+998) 71 212-60-76

r.mirzaahmedov@cbu.uz

Sh.X. Xayitboyev

To'lov balansi boshqarmasi boshlig'i

(+998) 71 212-60-42

sh.khayitboev@cbu.uz

Shuningdek, savollar va takliflar qo'shimcha ravishda stat@cbu.uz elektron pochta manziliga yuborilishi mumkin.

QISQACHA SHARH

2026-yilning I yarmida O'zbekiston tashqi sektorida avvalgi davrlarda shakllangan ijobiy tendensiyalar davom etdi. Xususan, tovarlar va xizmatlar eksporti hamda mamlakatga kirib kelgan xalqaro pul o'tkazmalari hajmi o'sdi. Shuningdek, mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko'lami yuqori darajada saqlandi.


Jumladan, 2026-yilning I yarmida **jami eksport** hajmi 15,4 mlrd dollarni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,6 foizga qisqardi. Bunda oltin eksportining kamayishi asosiy omil bo'lib, oltinsiz tovarlar eksporti 27 foizga, xizmatlar eksporti esa 45 foizga ko'paydi.

Hisobot davrida **jami import** hajmi 24 foizga o'sib, 28,8 mlrd dollarga yetdi. Bu investitsiyaviy faollik va ichki iste'mol talabining yuqori darajada saqlanib qolishi sharoitida mashina va uskunalar, transport vositalari, kimyoviy va mineral mahsulotlar hamda oziq-ovqat tovarlari importining yuqori hajmlarda shakllangani bilan izohlanadi. Import tarkibida tovarlar importi 24 foizga, xizmatlar importi esa 21 foizga oshdi.

Savdo balansi bo'yicha manfiy saldo 13,4 mlrd dollarni tashkil etib, **birlamchi va ikkilamchi daromadlar** hisobidagi ijobiy saldolar (*mos ravishda 1,9 mlrd va 5,3 mlrd dollar*) hisobiga qisman qoplandi.

Joriy operatsiyalar hisobi komponentlari

mln dollar



Yuqorida qayd etilgan tarkibiy omillar ta'sirida **joriy operatsiyalar hisobi** qariyb **6,2 mlrd** dollar miqdorida manfiy saldo bilan shakllandi.

Ushbu taqchillik asosan to'g'ridan-to'g'ri, portfel va boshqa investitsiyalar komponentlari bo'yicha operatsiyalar hamda boshqa manbalar hisobiga moliyalashtirildi.

Jumladan, hisobot davrida mamlakatga **to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sof kiritilishi**¹ 2,3 mlrd dollarga teng bo'ldi.


Portfel investitsiyalarning sof jalb qilinishi qariyb 2 mlrd dollarni tashkil qildi.

Davlat sektori, banklar va boshqa sektorlar kesimida valyuta va depozitlar, savdo kreditlari hamda tashqi qarzlar bo'yicha operatsiyalar hisobiga **boshqa investitsiyalar** komponenti bo'yicha qariyb 1,5 mlrd dollar miqdorida sof kirim qayd etildi.

Yuqoridagi tarkibiy omillar hisobiga 2026-yilning I yarmi yakuni bo'yicha **moliyaviy hisob** manfiy saldosi **7,5 mlrd** dollarni tashkil etdi.

Moliyaviy hisob komponentlari

mln dollar



¹ To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha ma'lumotlar Xalqaro valyuta jamg'armasining qo'llanmasiga (TBQ 6-son, XVJ, 2009-y.) muvofiq sof hajmlarda (investitsiya kiritilishi va repatriatsiyasi o'rtasidagi saldo) aks ettiriladi.

To'lov balansida aks etgan amaliyotlar va nooperatsiyaviy o'zgarishlar ta'sirida O'zbekistonning sof xalqaro investitsiyaviy mavqei joriy yil boshiga nisbatan 34 foizga qisqarib, 2026-yil 1-iyul holatiga 13,3 mlrd dollarni tashkil etdi.

Rezidentlarning tashqi aktivlari qoldig'i yil boshiga nisbatan 1,1 mlrd dollarga (1 foiz) kamaygan. Bunda, jahon bozorida oltin narxining pasayishi hisobiga xalqaro zaxiralar qoldig'i 2,5 mlrd dollarga qisqargan bo'lsa, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa investitsiyalar bo'yicha aktivlar qoldig'i 1,4 mlrd dollarga oshdi.

Shu bilan birga, rezidentlarning tashqi majburiyatlari qoldig'i 5,8 mlrd dollarga (5 foiz) ko'paydi.

Hisobot choragi yakuniga ko'ra, umumiy tashqi qarz qoldig'i 84,1 mlrd dollarni tashkil qildi. Uning tarkibida davlat tashqi qarzi 41,7 mlrd dollar², korporativ tashqi qarz esa 42,4 mlrd dollarga teng bo'ldi.

Ma'lumot uchun: korporativ tashqi qarz tarkibida xususiy sektor, jumladan tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat kafolatisiz jalb etilgan tashqi qarzlarni aks ettiriladi. Bunda, korporativ tashqi qarz bo'yicha davlat majburiyati mavjud emas, ular bo'yicha to'lovlar xo'jalik subyektlari hamda banklarning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Shu o'rinda, XVJ bayonotida O'zbekistonning tashqi qarz yuki past darajada ekanligi (asosan imtiyozli shartlarda olingan) e'tirof etilgan.

Markaziy bank O'zbekiston to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei va tashqi qarz ko'rsatkichlarini shakllantirish doirasidagi hamkorlik uchun tegishli vazirlik, idora va boshqa tashkilotlarga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

² XVJning TBQ 6-son qo'llanmasiga muvofiq davlat tashqi qarzi qoldig'i hisoblangan, lekin to'lanmagan foizlarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, suveren xalqaro obligatsiyalar qiymati hisobot sanasidagi bozor narxlaridan kelib chiqib qayta hisoblangan.

1-ilova. 2024-2026-yillarning I yarmi uchun to'lov balansi
(tahliliy ko'rinishi)

(mln dollar)

Ko'rsatkichlar	2024-yil I yarmi	2025-yil I yarmi	2026-yil I yarmi
A. Joriy operatsiyalar hisobi saldosi¹	-2 929,4	79,2	-6 209,5
Tovarlar, kredit (eksport)	9 905,8	12 673,3	9 350,6
Tovarlar, debet (import)	16 055,0	16 709,4	20 778,9
Xizmatlar, kredit (eksport)	2 972,4	4 148,9	6 023,2
Xizmatlar, debet (import)	5 012,7	6 611,6	8 032,4
<i>Savdo balansi saldosi</i>	<i>-8 189,4</i>	<i>-6 498,9</i>	<i>-13 437,5</i>
Birlamchi daromadlar, kredit	3 821,3	4 977,7	4 954,4
Birlamchi daromadlar, debet	2 135,7	2 646,6	3 072,5
<i>Savdo balansi va birlamchi daromadlar saldosi</i>	<i>-6 503,8</i>	<i>-4 167,8</i>	<i>-11 555,6</i>
Ikkilamchi daromadlar, kredit	4 188,4	5 122,3	6 367,8
Ikkilamchi daromadlar, debet	614,0	875,3	1 021,7
B. Kapital operatsiyalari hisobi	0,5	8,5	15,3
Kapital operatsiyalar hisobi, kredit	0,5	8,5	15,3
Kapital operatsiyalar hisobi, debet	0,0	0,0	0,0
<i>Joriy operatsiyalar hisobi va kapital operatsiyalar hisobi saldosi</i>	<i>-2 928,9</i>	<i>87,7</i>	<i>-6 194,1</i>
C. Moliyaviy hisob (zaxira aktivlaridan tashqari)	-2 464,9	-2 523,1	-4 308,9
To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, aktivlar	10,4	90,3	152,6
To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, majburiyatlar	1 120,9	1 547,0	2 323,1
Portfel investitsiyalar, aktivlar	0,0	0,0	1,3
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	0,0	0,0	1,3
Qarz instrumentlari	0,0	0,0	0,0
Portfel investitsiyalar, majburiyatlar	862,0	2 966,6	1 963,2
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	-13,7	-0,9	686,4
Qarz instrumentlari	875,7	2 967,5	1 276,8
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari)	0,0	0,0	0,0
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar, aktivlar	0,0	0,0	0,0
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar, majburiyatlar	0,0	0,0	0,0
Boshqa investitsiyalar, aktivlar	1 819,0	3 976,4	1 326,3
Kapitalda ishtirok etishning boshqa instrumentlari	0,0	0,0	0,0
Qarz instrumentlari	1 819,0	3 976,4	1 326,3

Ko'rsatkichlar	2024-yil I yarmi	2025-yil I yarmi	2026-yil I yarmi
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Depozit tashkilotlari, Markaziy bank bundan mustasno	159,6	902,3	-882,7
Davlat boshqaruv sektori	-6,9	-8,2	-12,5
Boshqa sektorlar	1 666,3	3 082,3	2 221,5
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Nomoliyaviy tashkilotlar, uy xo'jaliklari va UXXKNT	1 666,3	3 082,3	2 221,5
Boshqa investitsiyalar, majburiyatlar	2 311,5	2 076,2	1 502,7
Kapitalda ishtirok etishning boshqa instrumentlari	0,0	0,0	0,0
MQH taqsimlanishi	-0,1	-0,6	0,0
Qarz instrumentlari	2 311,6	2 076,8	1 502,7
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Depozit tashkilotlari, Markaziy bank bundan mustasno	43,8	931,3	275,5
Davlat boshqaruv sektori	1 203,1	821,2	637,1
Boshqa sektorlar	1 064,6	324,3	590,1
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	9,2	-6,6	-5,1
Nomoliyaviy tashkilotlar, uy xo'jaliklari va UXXKNT	1 055,5	330,9	595,2
D. Sof xatolar va yo'qotishlar	-340,9	-1 629,1	-1 359,8
E. Umumiy balans	804,9	-981,7	3 245,0
F. Zaxiralar va ular bilan bog'liq moddalar	-804,9	981,7	-3 245,0
Zaxira aktivlari	-866,2	920,3	-3 257,6
XVJdan sof qarz jalb qilish (XVJdagi zaxira pozitsiyasidan tashqari)	-61,3	-61,4	-12,6
Boshqa moliyalashtirish	0,0	0,0	0,0

Ushbu statistik hisobot to'lov balansini tuzish qo'llanmasining (TBQ 6-son, XVJ, 2009-y.) 6-nashrida keltirilgan tahliliy ko'rinishni aks ettiradi.

¹ O'zbekistondan chet elga ishlash maqsadida chiqqan jismoniy shaxslarning o'rtacha daromadlari va xarajatlari bo'yicha baholashlar qayta ko'rib chiqilganligi munosabati bilan, 2020-yil I choragidan 2026-yil I choragiga qadar joriy operatsiyalar hisobining xizmatlar importi, birlamchi va ikkilamchi daromadlari bo'yicha tegishli ko'rsatkichlar retrospektiv ravishda qayta hisoblandi.

**2-ilova. 2024-2025-yillar va 2026-yilning I yarmi uchun xalqaro
investitsiyaviy mavqe
(tahliliy ko'rinishi)**

(mln dollar)

Ko'rsatkichlar	01.01.2025y.	01.01.2026y.	01.07.2026y.
Aktivlar	96 407,1	128 502,5	127 399,3
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	243,8	408,8	561,1
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	69,0	234,0	386,3
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	69,0	234,0	386,3
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	0,0	0,0	0,0
Qarz instrumentlari	174,8	174,8	174,8
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	2,6	2,6	2,6
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	172,2	172,2	172,2
Portfel investitsiyalar	3,1	3,5	4,7
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	3,1	3,5	4,7
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	1,1	1,1	1,1
Davlat boshqaruvi sektori	0,0	0,0	0,0
Boshqa sektorlar	2,0	2,3	3,6
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Qarz qimmatli qog'ozlari	0,0	0,0	0,0
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	0,0	0,0	0,0
Davlat boshqaruvi sektori	0,0	0,0	0,0
Boshqa sektorlar	0,0	0,0	0,0
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar (oltin valyuta zaxiralaridan tashqari) va xodimlar uchun aksiyalarning opsiyalari	0,0	0,0	0,0
Boshqa investitsiyalar	54 978,6	61 778,4	63 063,6

Ko'rsatkichlar	01.01.2025y.	01.01.2026y.	01.07.2026y.
Boshqa kapitalda ishtirok etish instrumentlari	7,0	20,2	20,2
Qarz instrumentlari	54 971,6	61 758,2	63 043,4
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	4 061,9	5 589,7	4 687,6
Davlat boshqaruvi sektori	2,8	4,8	15,8
Boshqa sektorlar	50 906,9	56 163,6	58 340,1
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Zaxira aktivlari	41 181,6	66 311,8	63 769,8
Monetar oltin	32 036,7	55 092,4	55 757,1
Qarz olishlarning maxsus huquqlari	547,3	574,8	569,2
XVJdagi zaxira pozitsiyasi	0,0	0,0	0,0
Boshqa zaxira aktivlari	8 597,7	10 644,5	7 443,5
Majburiyatlar	86 001,2	108 269,4	114 053,5
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	19 684,5	24 778,5	27 222,8
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	15 025,0	18 789,1	20 587,8
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	15 025,0	18 789,1	20 587,8
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	0,0	0,0	0,0
Qarz instrumentlari	4 659,6	5 989,4	6 635,1
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	4 201,8	5 227,7	5 608,9
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	457,8	761,7	1 026,1
Portfel investitsiyalar	8 428,9	13 747,7	16 030,5
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	117,2	143,1	1 149,1
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	75,1	93,2	226,4
Davlat boshqaruvi sektori	0,0	0,0	0,0

Ko'rsatkichlar	01.01.2025y.	01.01.2026y.	01.07.2026y.
Boshqa sektorlar	42,1	49,9	922,8
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	1,7	2,6	864,1
Qarz qimmatli qog'ozlari	8 311,7	13 604,6	14 881,4
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	2 340,4	3 278,8	3 516,0
Davlat boshqaruvi sektori	4 049,9	6 290,4	7 505,4
Boshqa sektorlar	1 921,4	4 035,4	3 860,0
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Hosilaviy moliya instrumentlar (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari) va xodimlar uchun aksiyalarning opsionlari	0,0	0,0	0,0
Boshqa investitsiyalar	57 887,8	69 743,2	70 800,2
Boshqa kapitalda ishtirok etish instrumentlari	0,0	0,0	0,0
Qarz olishlarning maxsus huquqlari (majburiyatlarni sof qabul qilish)	1 037,4	1 088,3	1 077,7
Boshqa qarz instrumentlari	56 850,3	68 654,9	69 722,4
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	11 680,7	14 752,3	14 906,5
Davlat boshqaruvi sektori	25 330,8	30 302,8	30 120,8
Boshqa sektorlar	19 838,9	23 599,7	24 695,0
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	119,3	185,7	179,8
Sof xalqaro investitsiyaviy mavqe	10 406,0	20 233,0	13 345,7